



USE OF SOME MEDICINAL PLANTS OF THE LAMIACEAE FAMILY IN FOLK MEDICINE

Rahimova Hilolaxon Rustamjanovna¹

¹Tashkent Medical Academy trainee researcher

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5059700>

ARTICLE INFO

Received: 20th June 2021

Accepted: 25th June 2021

Online: 30th June 2021

KEY WORDS

Lamiaceae family,
medicinal species, flora,
perfumery, extract, drug,
hemorrhoids,
hemophilia, gastritis,
pneumonia, bronchitis,
malaria,
pharmaceuticals.

ABSTRACT

The article describes the important properties of medicinal plants of the family Lamiaceae, their medicinal properties, in particular, their use in folk medicine.

LAMIACEAE OILASIGA KIRUVCHI AYRIM DORIVOR O'SIMLIKLARNI XALQ TABOBATIDA QO'LLANILISHI

Rahimova Hilolaxon Rustamjonovna¹

¹Toshkent Tibbiyot Akademiyasi stajer-tadqiqotchisi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-iyun 2021

Ma'qullandi: 25-iyun 2021

Chop etildi: 30-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

Yalpizdoshlar (Lamiaceae) oilasi, dorivor turlar, flora, parfyumeriya, ekstrakt, preparat, bavo-sil, gemofiliya, gastrit, pnevmoniya, bronxit, bezgak, farmaseftika.

ANNOTATSIYA

Maqolada Yalpizdoshlar (Lamiaceae) oilasiga oid shifobaxsh o'simliklarning muhim xususiyatlari, ularning dorivorlik jihatlari, xususan, ularning xalq tabobatida qo'llanilishi yoritilgan.

Dunyoda iqtisodiy ahamiyatga molik o'simlik turlariga bo'lgan talabning kundan kunga ortib borishi ularning xilma-xilligini

saqlash, muhofaza qilish va zaxiralarini tiklashni talab etmoqda. Farmasevtika sanoatida xom ashyolariga ehtiyoj kuchli



bo'lgan farm zonalarini aniqlash, biologik xususiyatlarini o'rganish asosida ularni ko'paytirish va populyasiyalarini saqlab qolishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, xom ashyo zaxiralarini yaratish va sifatli xom ashyo tayyorlash ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Lamiaceae oilasi yer yuzidagi eng yirik oilalardan biri hisoblanadi. Uning vakillari asosan issiq va mo'tadil iqlimli mamlakatlarda keng tarqalgan. Bu oilaga 200 ga yaqin turkum va 3000 tur kiradi. O'rta Osiyoda 53 turkumga mansub 360 tur, O'zbekistonda esa 42 turkumga mansub 210 tur, Farg'ona vodiysida esa 26 turkumga oid 59 tur o'sishi ma'lum. Yalpizdoshlar oilasi O'zbekiston florasida ham keng tarqalgan oilalardan biri bo'lib, foydali turlarga boyligi bilan boshqa oilalardan ajralib turadi.

Yalpiz, Marmarak, Kiyiko't, Bozulbang, Tog'rayhon, Limono't, Arsloquloq kabi turkumlarning vakillari juda qadimdan beri tibbiyotda, oziq ovqat, qandolatchilik va parfyumeriya sanoatida foydalanib kelinmoqda.

Labguldoshlar oilasining 200 turkumi va 3500 turi bor. Ular butun yer yuzining deyarli hamma joyida uchraydi va o'rmon, dasht, sahro va tog'larda o'sadi.

Yalpizdoshlar oilasiga mansub turlar tahlil qilinganda bu oilaga mansub Nepeta turkumi vakillari (9tur) ko'pligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi o'rinda Eremstachys (8 tur), uchinchi o'rinda esa Scutellaria va Phlomis turkumi (5 tadan turi) turlari ko'p tarqalishi jihatidan etakchi o'rinlarda turadi.

Tog'li va tog'oldi xududlarida erta bahorda Salvia va Lagochilus turkumiga mansub (4 tadan tur) o'simliklarni gullab, urug'laganini ko'rish mumkin. Farg'ona vodiysida Perovskia va Dracocephalumning

esa 2 tadan turi, qolgan turkumlarning faqat bittadan turi uchraydi xalos.

O'zbekiston "Qizil kitobi" ga kiritilgan 30 ta tur o'simlikdan Farg'ona vodiysi florasida faqat 1 turi ya'ni, Salvia margaritae Botsch. uchraydi xalos.

Farg'ona vodiysi florasida Lamiaceae oilasi vakillari xilma xiligi va turli ekologik muhit sharoitlariga moslashganligi va bir qancha shifobaxshlik xususiyatlari bilan alohida o'rin tutadi.

Lamiaceae oilasi vakillari orasida bir qancha istiqbolli, ahamiyatli va o'rganishga extiyoj seziladigan turlar anchaginani tashkil qiladi. Ular orasida dorivor, oziq-ovqatbop, efir-moyli, oshlovchi, bo'yoqbop va boshqa turdagi ahamiyatga ega bo'lgan turlarni uchratishimiz mumkin.

Mavrak turkumi - (Salvia). Ko'p yillik o't chala buta o'simliklar. Uning Osiyoda 20 dan ko'p turi uchraydi. Ular tog'li rayonlarda ko'p tarqalgan. S. officinalis turi dori tayyorlashda ishlatiladi.

Yalpiz turi (Mentha). Ko'p yillik o't o'simliklari bo'lib efir moylidir. Bu oilaning vakillari asosan zax yerlarda, ariq va kanal bo'ylarida tarqalgan O'zbekiston florasida Osiyo yalpizi (M.asiatica) keng tarqalgan. Cho'l yalpiz (M. arvensis) va jingalak yalpizlar (M. crispa) ekiladi.

Oddiy rayhon-(Acimum basilicum). Bir yillik o't o'simlik, uning oq rayhon, qora rayhon, osh rayhon, turlari ma'lum. Ular ziravor va xushbo'y o'simlik sifatida ekiladi. Yasnotkalar turkumi - Lamium-. Bir va ko'p yillik o't o'simliklar. O'zbekiston florasida pushti yasnotka (L.amplexicanle) va oq yasnotka (L.alla) turlari begona o't sifatida o'sadi.L.alla dori tayyorlashda ishlatiladi. Ular asal beruvchi o'simlik hisoblanadi.

Kiyiko'tlar turkumi-Ziziphora. Bular tarkibida efir moylari bor bir yillik va ko'p yillik o'tlardir.



Tog' jambili (*Origanum*)- Faqat bir turi (*O.tythanum*) O'zbekiston florasida tarqalgan.

Lavanda turkumi - *Lavandula*.-Asl lavanda *L.vera*.bu gullari ko'p yoki to'q binafsha rangli juda xushbo'y hidli chala butadir. Efir moyi olish uchun Qrimda, Kavkazda va Moldaviyada ekiladi. Efir moyidan odekolonlar tayyorlanadi. Quritilgan gullari kiyimlarni kuyadan saqlash uchun sepiladi. Bu oila vakillari efir moyiga boy bo'lgandan ularning ko'pgina vakillari efir moyi olish uchun ekiladi. Mas. Mavrak (muskat mavragi), lavanda, nano va boshqalar. Bulardan olingan efir moyi atir upa sanoatida, ovqat va likyor-aroq ishlab chiqarish sanoatida qo'llaniladi. Bir necha turlari masalan., tog' jambili, *logoxillus*, limono'ti, jingalak nano, dori mavrak, arslonquyruq va boshqalar meditsinada ishlatiladi. Yalpiz, osh rayhon, jambil va boshqalar ovqat mazasini yaxshilashda ishlatiladi.

Lamiaceae oilasi turlarining xalq xo'jaligida foydalanilishi va ishlatilishi bo'yicha tahlil qilinganda quyidagilar ma'lum bo'ldi, 238 turdan eng ko'p 143 tur asal-shirali 60%, 69 ta dorivor 29%, 100 ta efir moyli 42%, 27 ta dekorativ, ya'ni manzarali 11, 3%, 19 ta oziq- ovqat 8% ni tashkil qildi. Oilaga

mansub 74 tur o'simlikdan esa hozircha foydalanilmasligi ma'lum bo'ldi.

Phlomoides canescens o'simligining poya qismi xalq tabobatida anemiya, gipoatsidli gastrit, pnevmoniya, bronxit, o'pka tuberkulyozi, bezgak, gemorroy, shish va gipertoniya kasalligida ishlatilgan. Havo qismining quyilishi qon ivishini kuchaytiradi, gipotenziv ta'sirga ega ekanligi aniqlandi.

Tog' rayhonning yer ustki qismidan tayyorlangan dimlama, suyuq ekstrakti va turli yig'malar-choylar tarkibida nafas yo'llari kasalliklarida balg'am ko'chirish, ichak peristaltikasini yaxshilash, ishtaxa ochish, ovqat xazmini yaxshilash, siydik va yem xaydash uchun qo'llaniladi.

Limono't qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda ishlatib kelingan. Abu Ali ibn Sino uning yer ustki qismini yurak ishini va ovqat xazmini yaxshilash uchun qo'llagan. Xalq orasida hozirgi kunda ham limono'tning yer ustki qismi (ba'zan bargining) damlamasi ovqat xazmini yaxshilash maqsadida keng foydalaniladi. Bundan tashqari, u kamqonlik, asab va yurak kasalliklarini davolash uchun, og'riq qoldiruvchi, surgi sifatida ham qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. XXI асрда биологиянинг ривожланиш истиқболлари XXI асрда биологиянинг ривожланиш истиқболлари. З.А.Юсупова Ялпиздошдошлар оиласи шифобахш ва доривор турларининг биоэкологик хоссалари. Жиззах-2021, 422- bet
2. Flora of Uzbekistan, Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR. 1961 . v. 5. from. 263-415.
3. Акбарова М. Х., Жураев З. Н. Состояние ценопопуляций *Scutellaria adenostegia* Briq. (Lamiaceae) в Ферганской долине // Science and Education. – 2020. Т. 1. №4.
4. Xolmatov X.H., Mavlonqulova Z.I., Maxsumov M.N "Qon oqishini to'xtatuvchi dorivor o'simliklar" Tashkent. "Ibn sino".1993.220- bet.
5. Karimov V.A., Shomahmudov A "Xalq tabobatida va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar". Tashkent. "Ibn sino".1993.30 -bet.



6. Prатов O', Madumarov T.A., Naralieva N.M. O'zbekistonning noyob o'simliklari. O'quv metodik qo'llanma. Toshkent, 2011.
7. Adylov T.A., & Makhmedov A.M., Phlomoides Moench. Определитель растений Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1987. Т. 9. С. 82-106.
8. Худойбердиев Т.Х. Губоцветные и растителном покрове Ферганский долина. Докт. биол. наук. // Т.: 1997. С. (2). 44.